

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

TANGRIYEV ABDULLA TOVOSHEVICH

**MALAKALI DZYUDOCHILARNI TAKTIK TAYYORLASH TIZIMINI
TAKOMILASHTIRISH**

**13.00.04-Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Tangriyev Abdulla Tivoshevich

Malakali dzyudochilarni taktik tayyorlash tizimini takomilashtirish 3

Тангриев Абдулла Тивошевич

Совершенствование системы тактической подготовки квалифицированных
дзюдоистов 29

Tangriyev Abdulla Tivoshevich

Improving the tactical training system for qualified judokas..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

TANGRIYEV ABDULLO TOVOSHEVICH

**MALAKALI DZYUDOCHILARNI TAKTIK TAYYORLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04-Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Ped4639 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kenash veb sahifasida www.jtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www. ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gaziyev Shukujon Shuxrat o‘g‘li
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Korobeynikov Georgiy Valeryevich
biologiya fanlari doktori, professor

Axmedov Farrux Shavkatovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metalurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Web-sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Madaniyat saroyi”, konferensiyalar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19- uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “__” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Soʻnggi yillarda dunyo miqyosida malakali sportchilarni tayyorlash boʻyicha samarali tizim izchil takomillashib bormoqda. Ayniqsa, dzyudochilarni tayyorlashda mashgʻulot jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish, koʻp yillik tayyorgarlikni puxta rejalashtirish va raqobatbardosh sportchilarning musobaqaviy holatini yuqori darajada shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Dzyudo sportining xalqaro arenalardagi jadal rivojlanishi, Olimpiya va Paralimpiya oʻyinlarida natijalarga erishish uchun kurashning keskinligi ortib borayotgani mutaxassis va murabbiylardan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli, malakali dzyudochilarni tayyorlashda ularning jismoniy sifati va tayyorgarlik darajasini oshiruvchi, musobaqalarda yuqori natijalar beruvchi zamonaviy vosita va metodikalarni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

Jahon dzyudosi sportga ilmiy yondashuv asosida taraqqiy etmoqda. Xalqaro miqyosda malakali dzyudochilarni tayyorlashda jismoniy chidamlilik, kuch, tezlik va taktik qobiliyatlarni aniqlik bilan baholash maqsadida maxsus laboratoriya sinovlari hamda individual nazorat tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday talablar sportchilarning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro mezonlarga mos natijalarga erishishni taʼminlovchi omil sifatida eʼtirof etilmoqda. Dzyudo sport turida musobaqalashuv jarayonining intensivligi ortib borayotgani va oʻsmir sportchilarni tayyorlashdagi zamonaviy yondashuvlar soha mutaxassis va olimlaridan innovatsion vosita hamda uslublarni samarali qoʻllashni talab qilmoqda. malakali dzyudochilarni musobaqaga tayyorlash jarayonida ularning taktik faoliyatini ilmiy asosda shakllantirish, ayniqsa bellashuv davomida qaror qabul qilish tezligi va harakatlarni samarali rejalashtirish kabi taktik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va amaliy yechimni talab etuvchi muammolari yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda dzyudo sport turiga iqtidorli sportchilarni izlab topish, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Dzyudoning olimpiya sport turi sifatida ommaviylikini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini taʼminlash”¹ kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Hozirgi sport amaliyotida koʻp yillik tayyorgarlik tizimini takomillashtirish, musobaqa faoliyatidagi natijadorlikni oshirish va oʻquv-mashgʻulot jarayonini bellashuv talablariga moslashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa mashgʻulotlarga zamonaviy vosita va uslublarni joriy etishni taqozo etadi. Ayniqsa, oʻsmir dzyudochilarning maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va kuch hamda tezkor-kuch sifatlarini takomillashtirish muammolari hali yetarlicha oʻrganilmagani soha olimlari oldida muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi PQ-286-son “Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-son «2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida»gi va 2022-yil 20-iyundagi PQ-286-son «Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda sohadagi oid bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganligi darajasi. Respublikamizda dzyudochilarning tayyorgarlik turlarini takomillashtirish, musobaqa faoliyatini tahlil etish asosida tayyorgarlik jarayonining rejalarini ishlab chiqish, nazariya va amaliyotni uzviyligini taminlash hamda mashg‘ulot yuklamasidan keyingi tiklanish faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish masalalari bo‘yicha F.A.Kerimov, V.A.Kim, A.K.Ataev, L.P.Yugay, R.D.Xalmuxamedov, Sh.A.Mirzaqulov, Sh.S.Mirzanov, R.S.Salomov, I.B.Aliyev, Z.S.Artiqov, O.J.Dadaboev, F.Sh.Axmedov, S.E.Qodirov, Sh.Sh.Gaziyev² va boshqa mutaxassislar tomonidan sohaga oid turli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari yetakchi mutaxassislar tomonidan yakkakurash sport turlarida maqsadli rejalashtirish, jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqish, tayyorgarlik jarayonini individuallashtirish, kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning samaradorligi, ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida malakali dzyudochilarni jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, texnik-taktik tayyorgarligini tizimli yo‘lga qo‘yish masalalari bo‘yicha L.P.Matveev, A.A.Karelin, V.F.Boyko, V.N.Platonov,

2 Абдиев А.Н. Борьба. Организация восстановительно-тренировочного процесса на послесоревновательном этапе. – Т., 1997. – 138 с., Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти: Дарслик. – Т., 2001. – 285 б.; Ким В.А. Контратаки в дзюдо: методы исследования и проблемы обучения». Монография. Т., 2003. -188 с.; Атаев А.К. Ёш-ўсмирларга ўзбек курашини ўргатиш услубиёти. Т., 2005. - 146 б.; Югай Л.П.. Основы дзюдо. Т., 2005. - 133 с.; Азизов Н.Н. Малакали дзюдочиларнинг махсус ва мусобақаолди тайёргарлигини шакллантириш. Фан номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2007. - 143 б.; Халмухамедов Р.Д. Технология подготовка единоборцев на этапах годичного цикла. Диссертация на соискание ученой степен доктора педагогических наук. Т., 2009.- 300 с.; Mirzaqulov Sh.A. Belbog‘li kurash nazariyasi va uslubiyati., Т., 2014. В 25-39; Мирзанов Ш.С. Методика силовой подготовки юных белбогли курашистов., Ж.: “Фан-спортга”. 2014., № 3. с 22-35; Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. II-jild. Darslik. – Т., 2015. – 287 б., Артиқов З.С. Белбоғли курашда статик ва динамик кучланиш давомида мувозанат сақлаш функциясини шакллантириш методикаси. (PhD) Автореферат., Ч., 2018. – 26 б.; Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. / Darslik. – Т., “Sano-Standart”, 2017. – 480 б., Дадабоев О.Ж. Дзюдочиларнинг кўп йиллик тайёргарлик концепцияси. Фан доктори (DSc) дисс... Ч.: 2021. – 348 б., Ахмедов Ф.Ш. Малакали дзюдочилар беллашув фаолиятини ҳисобга олган ҳолда мусобақа имкониятини ошириш. (PhD) Автореферат., Ч., 2022. – 26 б.

G.S.Tumanyan, Yu.V.Verxoshanskiy, J.K.Xolodov, V.M.Zasiorskiy³ va boshqalarning tadqiqotlarida keng o‘rganilgan.

O‘z vazn og‘irligidan kelib chiqib kuch va tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning anatomik xususiyatlari bo‘yicha B.Contreras, B.Stewart, to‘g‘ri ovqatlanish, mushaklarni rivojlantirish, sport ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda sport toifasiga qarab chidamlilik va kuch sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha D.Bagchi, S.Nair, K.Chandan, zamonaviy vosita va usullar orqali dzyudochilarning chidamlilik ko‘rsatkichlarini boholash bo‘yicha P.Azevedo, A.Drigo, M.Carvalho, J.Oliveira va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dzyudochilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etishga oid tadqiqotlar mavjud bo‘lishiga qaramay, malakali sportchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Jumladan, jangovar holatlarda qaror qabul qilish tezligi, vaziyatga mos taktika tanlashi va taktik harakatlarning uyg‘unligini shakllantirishga oid izlanishlar tizimli tarzda olib borilmagan. Bu esa malakali dzyudochilarni taktik tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I/1 “Malakali sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish” ilmiy tadqiqotlari yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi malakali dzyudochilarning tayyorgarlik turlari bo‘yicha mashg‘ulot dasturini ishlab chiqish orqali taktik harakatlar tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

malakali dzyudochilarning musobaqa davridagi maxsus jismoniy tayyorgarligi oshirish orqali, texnik-taktik harakatlarga yaqinlashtirishchi kompleks mashqlarda dasturini ishlab chiqish;

dzyudochilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda invertarlar orqali bajariladigan mashqlar dasturini takomillashtirish;

³ Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999. – 316 с., Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации. Монография. //Новосибирск, 2002. – 480 с.; Бойко В.Ф., Данько Г.В. Физическая подготовка борцов. Киев, Олимпийская литература, 2004. – С. 150-158.; Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. Киев, Олимпийская литература, 2004. - 808 с., Туманян Г.С. Школа мастерства борцов, дзюдоистов и самбистов: Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр “Академия”, 2006.–591 с. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 2007. - 236 с., Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие. – М.: Академия, 2008. – 204 с. Задиорский В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания / М: Спорт, 2019 – 200 с.;

³ Azevedo P.H., , Drigo A.J., Carvalho M.C., Oliveira J.C., Nunes J.E., Baldissera V., et al. Determination of judo endurance performance using the uchi-komi technique and an adapted lactate minimum test. J. Sports Sci. Med. 2007. - 6, pp. 10–14.; Stewart B. Medicine Ball Workouts. – USA, 2013. - 105 p.; Contreras B. Bodyweight Strength Training Anatomy. / пер. с англ. – изд.«Попурри», Минск: 2015. С. 200-224., Bagchi D., Nair S., Chandan K. Nutrition and enhanced sports performance: muscle building, endurance, and strength. – Elsevier, 2019 – 820 p.

malakali dzyudochilarning vazn toifalari inobatga olgan holda samarali bajarish imkoniyatini beruvchi kombinatsion taktik harakatlar tizimini ishlab chiqish;

dzyudochilarning musobaqa faoliyatida taktik harakatlar samaradorlini oshirish uchun uch bosqichli mashg'ulot yuklamalarini ratsion taqsimlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda dzyudo federatsiyasida shug'ullanuvchi malakali dzyudochilarning o'quv-mashg'ulot va musobaqa faoliyati jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini malakali dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uslubiyati tashkil qiladi.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqotda ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, ilg'or tajribalarni tahlil va sintez qilish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistik kabi uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

malakali dzyudochilarning musobaqa davridagi tayyorgarlik xususiyatlarini inobatga olgan holda texnik-taktik harakatlarni bajarish uchun maksimal yaqinlashtirilgan, yuqori intensivlikka ega kompleks mashqlardan tashkil topgan aylanma usullardan foydalanish hisobiga maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

dzyudochilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan, sport inventarlari yordamida bajariladigan mashqlar dasturidan musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida foydalanish orqali taktik harakatlarni yuqori amplitudada bajarish vaqtida tananing yelka kamar qismidagi mushaklarini boshqarish imkoniyatlari oshirilgan;

malakali dzyudochilarning vazn toifalari bo'yicha individual xususiyatlari, texnik imkoniyatlariga bevosita yuqori samaradorlik ko'rsatuvchi texnik-taktik kombinatsion tizimidan amaliy mashg'ulotlarga moslashtirish hisobiga qarshi hujum harakatlarni neytrallashtirish va hujum harakatlarini samarali yakunlash darajasi oshirilgan;

dzyudochilarning musobaqa faoliyatida taktik harakatlar samaradorligini oshirish maqsadida uch bosqichli musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichida tik va parter holatidagi bajariladigan taktik harakatlarni mezosikl mashg'ulot dasturi yuklamalarini ratsion taqsimlash orqali musobaqa faoliyatida murakkab taktik harakatlarni bajarish uslubiyati takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

musobaqa davridagi malakali dzyudochilarning texnik-taktik harakatlarini bajarish samaradorligini oshirish maqsadida yuqori intensivlikka ega, maksimal yaqinlashtirilgan kompleks mashqlardan aylanma usulda foydalanishga asoslangan maxsus jismoniy tayyorgarlik dasturi ishlab chiqilgan;

sport inventarlari asosida tuzilgan mashqlar majmuasi musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichida qo'llanilib, dzyudochilarning kuch, muvozanat va harakat amplitudasi asosida taktik harakatlarni yuqori darajada bajarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi metodik tizimi ishlab chiqilgan;

malakali dzyudochilarning vazn toifalari bo'yicha individual xususiyatlari asosida kombinatsion texnik-taktik harakatlar tizimi ishlab chiqilib, amaliy mashg'ulot jarayoniga moslashtirilgan holda qarshi hujumlarni neytrallashtirish va hujum harakatlarini samaradorligi oshirilgan;

musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichida uch mezosikl asosida rejalashtirilgan mashg'ulot yuklamalari orqali dzyudochilarning tik va parter holatidagi taktik harakatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuv takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchli, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning xulosalari bilan asoslanadi, tajriba ishlarining representativligi va olingan natijalarning matematik statistika usuli bilan qayta ishlanganligi bilan kafolatlanadi. Natijalar kompyuter texnologiyalari yordamida to'g'ri qayta ishlangan. Dissertasiyada keltirilgan taklif va amaliy tavsiyalarning ishonchliligi malakali dzyudochilarni texnik-taktik tayyorgarligi nazariyasi va metodikasining konseptual muammolarini hal qilish zarurati bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. shundan iboratki, malakali dzyudochilarning musobaqa davridagi tayyorgarlik xususiyatlarini inobatga olgan holda texnik-taktik harakatlarga maksimal yaqinlashtirilgan, yuqori intensivlikdagi kompleks mashqlardan aylanma usulda foydalanish orqali maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga ilmiy asos yaratadi. Shuningdek, sport inventarlari asosida ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi va kombinatsion taktik harakatlar tizimi vazn toifalariga mos holda takomillashtirildi. Uch bosqichli musobaqaoldi tayyorgarlik mezosikllarini ratsional taqsimlash orqali murakkab bellashuv harakatlarni samarali bajarish uslubiy asosda belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan mashg'ulot tizimi sportchilarning kuch, tezkorlik va texnik-taktik faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiladi. U sport maktablari va ixtisoslashgan sport muassasalarida dzyudochilarning individual xususiyatlariga mos ravishda qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy-uslubiy tavsiyalar majmuasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Malakali dzyudochilarning tayyorgarlik turlari bo'yicha mashg'ulot dasturini ishlab chiqish orqali taktik harakatlar tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

malakali dzyudochilarning musobaqa davridagi tayyorgarlik xususiyatlarini inobatga olgan holda texnik-taktik harakatlarni bajarish uchun maksimal yaqinlashtirilgan, yuqori intensivlikka ega kompleks mashqlardan tashkil topgan aylanma usullardan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Dzyudo Federasiyasi bazasida shug'ullanuvchi yoshlar terma jamoasi dzyudochilarning o'quv-mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 17-yanvardagi 02-16/537-son ma'lumotnoma). Natijasida, jismoniy tayyorgarligini 13,5-14,0 % ga oshirishga erishilgan.

dzyudochilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan, sport inventarlari yordamida bajariladigan mashqlar dasturidan musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash mazkazi o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlariga tatbiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 17-yanvardagi 02-16/537-son ma'lumotnomasi). Natijada, texnik-taktik tayyorgarligi 12,3 % yaxshilangan.

malakali dzyudochilarning vazn toifalari bo'yicha individual xususiyatlari, texnik imkoniyatlariga bevosita yuqori samaradorlik ko'rsatuvchi texnik-taktik kombinatsion tizimidan amaliy mashg'ulotlarga moslashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash mazkazi o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 17-yanvardagi 02-16/537-son ma'lumotnomasi). Natijada, qarshi hujum harakatlarini bajarish 14,7 % ga o'sgan..

dzyudochilarning musobaqa faoliyatida taktik harakatlar samaradorligini oshirish maqsadida uch bosqichli musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichida tik va parter holatidagi bajariladigan taktik harakatlarni mezosikl mashg'ulot dasturi yuklamalarini ratsion taqsimlash bo'yicha taklif va tavsiyalar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash mazkazi o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 17-yanvardagi 02-16/537-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston chempionati, kubogi va xalqaro musobaqalarda faxrli o'rinlar egallangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola, xorijiy ilmiy jurnallarda 1 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishida kirish, to'rta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi, 139 betni tashkil etib, 16 ta jadval, 7 ta rasm, ilovalar va joriy etish dalolatnomalarni o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqotdan olingan natijalarining ishonchliligi, tadqiqot

natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularning joriy qilinishi, aprobeziyasi, e'lon qilinganligi, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Malakali dzyudochilarni taktik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida dzyudo sport turi bo'yicha malakali sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda sportchilarning musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritishi ularning tayyorgarlik darajasiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bob davomida A.N.Abdiev, F.A.Kerimov, V.A.Kim, A.K.Ataev kabi mahalliy, shuningdek, L.P.Matveev, A.A.Karelin, V.N.Platonov kabi xorijiy mutaxassislarining ilmiy ishlariga tayanilgan holda, mavjud tadqiqotlar chuqur tahlil qilingan. Taktik tayyorgarlikning musobaqa jarayonlarida ustunlikni ta'minlashdagi ahamiyati hamda uni takomillashtirish uchun yangi metodikalarni ishlab chiqish zarurligi asoslangan. Tadqiqot natijasida pedagogik kuzatishlar, tajriba va matematik-statistik usullar orqali sportchilarning tezkor va aniq qaror qabul qilish, raqib harakatlarini oldindan bilish ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyati ilmiy jihatdan asoslangan. Xulosa sifatida, texnik-taktik tayyorgarlikni zamonaviy ilmiy yondashuv asosida takomillashtirish sportchilarning xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatlarini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda mavzu doirasida to'plangan ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, ilg'or tajribalarni tahlil va sintez qilish, pedagogik kuzatishlar, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika va matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Joriy tadqiqotlar 2020-2023-yillar mobaynida o'tkazilgan bo'lib, Respublika olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazida dzyudo sport turi bilan shug'ullanuvchi 42 nafar sportchilar jalb qilindi.

Pedagogik tajriba 2022-2023-yillar davomida tashkil etilgan bo'lib, Respublika olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazida dzyudo sport turi bilan shug'ullanuvchi, har biri 21 nafar talabalardan iborat nazorat va tajriba guruhlarini jalb qilindi. Tajriba va nazorat guruhlariga sportchilarni saralashda sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy, texnik tayyorgarlik, malakasi, sport tasnifi, vazni, bo'yi va shu kabi jihatlarga e'tibor berilgan.

Nazorat guruhiga Respublika olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi yillik kalendar rejasiga muvofiq sport mashg'ulotlari tashkil etildi.

Tajriba guruhiga sportchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturlar asosida sport mashg'ulotlari tashkil etildi. Texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish uchun texnik usullar kombinatsiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun vazn toifalariga ko'ra Texnik usullar kombinatsiyalar samaradorligi deb nomlangan dastur ishlab

chiqildi. Umuman olganda, texnik kombinatsiyalarning ilmiy asoslangan holda vazn toifalariga qarab tanlanishi dzyudochilarning musobaqa sharoitida texnik-taktik ustunlikka erishishida muhim strategik va metodik vosita hisoblanadi. Mazkur yondashuvni amaliyotga tatbiq etish sportchilarning xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini ta'minlash imkonini beradi.

Barcha tadqiqotlar 3 bosqichda o'tkazildi:

Birinchi bosqichda (2021-2024 yy.) tanlangan mavzu bo'yicha pedagogik kuzatuv (sportchilarning kun tartibini o'rganish, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish). Mavzu bo'yicha chop etilgan manbalar to'plandi, qiyosiy tahlil qilindi va yozildi. Tanlangan mavzuga va belgilangan maqsad-vazifalarga mos ilmiy metodlar, pedagogik tanlandi hamda ulardan foydalanish tartibi ko'rsatilgan ikkinchi bob tayyorlandi.

Ikkinchi bosqichda (2022-2024 yy.) tanlangan metod-testlar yordamida joriy tadqiqotlar o'tkazildi, natijalar guruhlashtirilgan holda va tabaqalashtirilgan tartibda matematik-statistik usullar yordamida qiyosiy tahlil qilindi va o'rnatilgan meyoriy standartlar bilan taqqoslandi. Uchinchi bob yozildi.

Uchinchi bosqichda (2023-2024 yy.) nazorat va tajriba guruhlariga mansub sportchilar jalb qilingan pedagogik tajriba tahlil etildi. Tajriba davomida jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligi, musobaqa faoliyatidagi erishilgan natijalar tahlil qilindi. Taklif etilgan dasturlar va metodikalarning samaradorligi tadqiqot asosida aniqlandi.

Dissertatsiyaning "**Malakali dzyudochilarni taktik tayyorlashda nazariy va amaliy asoslari**" deb nomlangan uchinchi bobida Tadqiqot boshida dzyudo sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy hamda texnik-taktik tayyorgarligining dastlabki holatini aniqlash maqsadida test sinovlari o'tkazildi. Tadqiqot Respublika olimpiya va paraolimpiya sport turilariga tayyorlash markazlari sportchilari bilan o'tkazildi. Tadqiqotimizda 15-17 yoshli dzyudochilar qatnashdi. Dzyudochilarning maxsus va umumiy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida mashqlar majmuasi ishlab chiqildi va tajriba guruhi sportchilarining mashg'ulot jarayonlariga joriy qilindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Malakali dzyudochilarning maxsus tezkorlik va chidamlilik mashqlari dasturi

T/r	Mashq nomi	Maqsadi	Kerakli inventarlar	Me'yori (soniya)	Shiddat zonasi
1	O'ng oyoqda sakrab 6 m fishkaga borib, startga yugurib qaytib, 12 m fishkaga borib, qaytish	O'ng oyoq kuchi va tezkor harakatlarni rivojlantirish	Fishkalar (belgilash uchun)	30	Yuqori
2	Chap oyoqda sakrab 6m fishkaga borib, startga yugurib qaytib, 12m fishkaga borib, qaytish	Chap oyoq kuchi va tezkor harakatlarni rivojlantirish	Fishkalar (belgilash uchun)	30	Yuqori
3	O'tirgan holda sakrab 6m fishkaga borib, startga	Past holatdan tezkor harakatni	Fishkalar (belgilash	30	Yuqori

	yugurib qaytib, 12m fishkaga borib, qaytish	rivojlantirish va chidamlilikni oshirish	uchun)		
4	Tizzalardan sakrab turish mashqi + yugurish (6m va 12m fishkalarga)	Portlovchan kuch va sakrash qobiliyatini rivojlantirish	Fishkalar (belgilash uchun)	30	Yuqori
5	Uchikomi + yugurish (6m va 12m fishkalarga)	Texnik ko'nikma va tezkor chidamlilikni takomillashtirish	Fishkalar va sherik	30	Yuqori
6	Brosok (tashlash) bajargach 6m va 12m fishkalarga yugurib qaytish	Texnik usullar samaradorligi va umumiy chidamlilikni oshirish	Fishkalar va sherik	30	Yuqori

Dasturda keltirilgan mashqlar (6 ta) kompleks tarzda dzyudochilarning tezkor chidamliligi, oyoq mushaklarining portlovchan kuchi va texnik-taktik qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan. Har bir mashq 30 soniya davomida, yuqori shiddat zonasida bajariladi. Masalan, birinchi va ikkinchi mashqlar (o'ng va chap oyoqda sakrab yugurish) dzyudochilar uchun zarur bo'lgan asimmetrik oyoq kuchi, harakat sur'ati va manevrlikni rivojlantiradi. Uchinchi va to'rtinchi mashqlar (o'tirgan holda sakrash, tizzalardan sakrab turish) esa musobaqa jarayonida dzyudochining charchoq fonida harakat almashinuvi tezligini oshirishga xizmat qiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Malakali dzyudochilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish maxsus mashqlar dasturi

T/r	Mashq nomi	Maqsadi	Kerakli inventarlar	Me'yori (soniya)	Shiddat zonasi
1	Shtangani oldinga irg'itish	Yuqori ekstremitalar va yadro mushaklari kuchini oshirish	Shtanga	30	O'rta-yuqori
2	Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (klassik push-up)	Ko'krak, triseps va yadro mushaklari kuchini rivojlantirish	Gilam	30	O'rta
3	Qo'l va oyoqni gilamga tekkazgan holda oldinga chiqish bilan o'tirish (visit)	Qo'l-oyoqlar koordinatsiyasi va tayanch-motor tizimini faollashtirish	Gilam	30	O'rta
4	Qorin mushaklari mashqi (pres)	Qorin mushaklari kuchi va bardoshlilikini oshirish	Gilam	30	O'rta
5	Uchikomi – texnika elementlarini takrorlash	Texnika elementlarini avtomatlashtirish va mushak xotirasini shakllantirish	Gilam va sherik	30	Yuqori
6	Blin yordamida aylantirish mashqi (asosiy qismini kuchaytirish)	Asosiy tana mushaklarini kuchaytirish va koordinatsiyani rivojlantirish	Blin (og'irlik diski)	30	O'rta

7	Tolqinsimon qo'llarni bukib yozish (volnistiy atjimaniya)	Qo'l mushaklarining chidamliligi va koordinatsiyasini rivojlantirish	Qo'l to'siqlari (rezina, lenta)	30	O'rta
8	Arg'amchida sakrash (skakalka)	Tezkorlik, chidamlilik va yurak-qon tomir tizimini faollashtirish	Arg'amchi (skakalka)	30	O'rta-yuqori

Yuqori sport mahorati bosqichidagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun mo'ljallangan 8 ta maxsus mashq dasturi ishlab chiqildi. Ushbu maxsus mashqlar jadvalda har birining maqsadi, qo'llaniladigan jihozlari, bajarilish me'yori (30 soniya davomida) va shiddat zonasi bilan keltirilgan. Dastur mazmunan dzyudo jangovar harakatlariga maksimal yaqinlashtirilgan bo'lib, har bir mashq orqali sportchining ma'lum texnik elementlarini mustahkamlash va zarur jismoniy sifatlarni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Dastur tuzilishi sport mashg'ulotlarining nazariy asoslariga mos ravishda tanlangan bo'lib, unda maxsuslik (o'zgacha sportga xoslik) va mutanosib yuklama tamoyillari inobatga olingan. Yuqori malakali dzyudochilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimida bunday maxsus mashqlarni qo'llash texnik-taktik mahoratni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur 8 ta maxsus mashqning har biri dzyudoning musobaqa sharoitiga xos jismoniy va texnik talablarni qondirish uchun tanlangan. Mashqlar tarkibida takroriy uloqtirishlar (nage-komi), kurash usullarini kirish harakatlari (uchi-komi), maxsus ushlab turish va tortish mashqlari, portlovchan kuch mashqlari hamda tezkorlik va chidamlilikni rivojlantiruvchi elementlar mujassam. Har bir mashq yuqori shiddatda 30 soniya davomida bajarilib, sportchida muayyan vaqt ichida maksimal sifat ko'rsatkichlarini namoyon etishni talab etadi.

Dzyudo sport turida yuqori malakali sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligi samaradorligini oshirishda texnik usullar kombinatsiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Zamonaviy sport mashg'ulotlari nazariyasida ham, dzyudo nazariyasi va uslubiyatida ham sportchining har bir texnik harakatining muvaffaqiyatli bajarilishi ularning texnik ko'nikmalari repertuarining boyligi va kombinatsion usullar orqali jang davomida tashabbusni qo'ldan bermaslik qobiliyatiga bog'liq deb e'tirof etiladi (Platonov V.N., 2004; Komarov V.I., 2001).

Mazkur jadvalda malakali dzyudochilarning uch vazn toifasida – 60 kg-66 kg, 73 kg-81 kg va 90 kg-90+ kg – eng ko'p qo'llaniladigan texnik usullari va ularning amalga oshmagan holatlarda bajarilishi mumkin bo'lgan kombinatsiyalari keltirilgan. Har bir texnik usul uchun 1-, 2- va 3-kombinatsiya variantlari berilgan bo'lib, ular jang jarayonida sportchining texnik-taktik faoliyatini barqaror davom ettirish, raqib harakatiga moslashish hamda texnik repertuarini kengaytirish imkonini beradi.


Malakali dzyudochilarning texnik usullar amalga oshmagan vaziyatlarda qo'llaniladigan kombinatsiyalarini vazn toifalariga mos ravishda tanlash va qo'llash sportchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy tahlillar asosida aniqlandi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Malakali dzyudochilarni texnik-faktiktayyorgarligini takomillashtirish dasturi

T/r	Vazn toifasi	Texnik usul nomi	1-kombinatiya	2-kombinatiya	3-kombinatiya	
1	60 kg -66 kg	Seoi-otoshi	Ko-uchi-gari	Ko-uchi-gari, Tani-otoshi	Ko-uchi-gari, Tani-otoshi, Sumi-gaeshi	
2		Tai-otoshi	De-ashi-harai	De-ashi-harai, Ko-soto-gake	De-ashi-harai, Ko-soto-gake, Hiza-guruma	
3		De-ashi-harai	Sasae-tsurikomi-ashi	Sasae-tsurikomi-ashi, Tai-otoshi	Sasae-tsurikomi-ashi, Tai-otoshi, Ko-uchi-gari	
4		Sasae-tsurikomi-ashi	Hiza-guruma	Hiza-guruma, Ko-soto-gari	Hiza-guruma, Ko-soto-gari, O-uchi-gari	
5		O-uchi-gari	Ko-uchi-gari	Ko-uchi-gari, Harai-goshi	Ko-uchi-gari, Harai-goshi, O-soto-gari	
6		Ko-soto-gake	O-soto-gari	O-soto-gari, Uchi-mata	O-soto-gari, Uchi-mata, Harai-goshi	
7		Yoko-otoshi	Tani-otoshi	Tani-otoshi, Ura-nage	Tani-otoshi, Ura-nage, Yoko-guruma	
8		Tomoe-nage	Sumi-gaeshi	Sumi-gaeshi, Ura-nage	Sumi-gaeshi, Ura-nage, Hiza-guruma	
9	73 kg -81 kg	Ura-nage	Sumi-gaeshi	Sumi-gaeshi, Yoko-guruma	Sumi-gaeshi, Yoko-guruma, Tani-otoshi	
10		Uchi-mata	O-soto-gari	O-soto-gari, Ko-uchi-makikomi	O-soto-gari, Ko-uchi-makikomi, Harai-goshi	
11		O-soto-gari	Ko-soto-gake	Ko-soto-gake, Tani-otoshi	Ko-soto-gake, Tani-otoshi, Uchi-mata	
12		Ushiro-goshi	O-soto-gari	O-soto-gari, Ura-nage	O-soto-gari, Ura-nage, Ko-uchi-gari	
13		Soto-makikomi	Harai-goshi	Harai-goshi, Uchi-mata	Harai-goshi, Uchi-mata, O-soto-gari	
14		Yoko-guruma	Ura-nage	Ura-nage, Tani-otoshi	Ura-nage, Tani-otoshi, Sumi-gaeshi	
15		90 kg – 90+ kg	Tai-otoshi	De-ashi-harai	De-ashi-harai, Ko-soto-gake	De-ashi-harai, Ko-soto-gake, Hiza-guruma
16			O-soto-gari	Ko-soto-gake	Ko-soto-gake, Tani-otoshi	Ko-soto-gake, Tani-otoshi, Uchi-mata

3 bosqichli mashg‘ulot jarayonining ko‘rsatkichlari



1-rasm. Bosqichli mashg‘ulot dasturlarining malakali dzyudochilarga ta‘siri

Izoh: musobaqa oldi 3 bosqichli mashg‘ulot jarayonining asosiy ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. 1-bosqichda mashg‘ulot hajmi va shiddat yuqori bo‘lib, sportchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan. 2-bosqichda mashg‘ulot hajmi yuqori bo‘lib, kuch-tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratiladi. 3-bosqichda esa mashg‘ulotlar hajmi kamaytirilgan bo‘lib, tezkorlik va musobaqa oldi maksimal tayyorgarlikka yo‘naltiriladi.

Dzyudo sportida yuqori natijalarga erishishda texnik-taktik tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy sportning yuqori raqobat sharoitida texnik usullarni kombinatsiyalash qobiliyatiga ega bo‘lgan sportchilar musobaqalarda ancha samarali va muvaffaqiyatli bo‘lmoqdalar. Oliy sport mahorati bosqichida, sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini yanada takomillashtirish uchun texnik kombinatsiyalarning muntazam va tizimli qo‘llanilishi muhim hisoblanadi. Ushbu dastur malakali dzyudochilarning vazn toifalari bo‘yicha individual texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, uning samaradorligi ilmiy asoslangan holda tasdiqlangan.

Taqdim etilgan radar diagrammada musobaqa oldi 3 bosqichli mashg‘ulot jarayonining asosiy ko‘rsatkichlari grafik tarzda ifodalangan. Ushbu diagramma mashg‘ulot jarayonining har bir bosqichida mashg‘ulot hajmi, shiddat, kuch-tezkorlik va tezkorlik sifatlarining o‘zgarishini aniq ko‘rsatadi (4-jadvalga qarang).

1-bosqich mashg'ulot dasturi

Hafta kuni	Vaqt	Mashg'ulot qismi	Holat	Vazn toifasi	Mashqlar mazmuni (texnik kombinatsiyalar)	Shiddat zonasi %
Dushanba	Ertalab (3 soat)	Tayyorlov	Tik turgan holat	Barcha vaznlar	Umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus harakat koordinatsiyasi va isitish	O'rta (60-70)
		Asosiy	Tik turgan holat	60-66 kg	Seoi-otoshi asosidagi kombinatsiyalarni texnik takrorlash	Yuqori (80-90)
				73-81 kg	Ura-nage asosidagi kombinatsiyalarni texnik takrorlash	Yuqori (80-90)
				90+ kg	Soto-makikomi asosidagi kombinatsiyalarni texnik takrorlash	Yuqori (80-90)
		Yakunlov	Tik turgan holat	Barcha vaznlar	Stretching va tiklovchi mashqlar	Past (40-50%)
	Kechki (3 soat)	Tayyorlov	Parter	Barcha vaznlar	Parterdagi umumiy tayyorgarlik va texnik elementlar	O'rta (60-70)
		Asosiy			Kombinatsiyalar asosida parterda hujum va himoya texnikalarini mashq qilish	Yuqori (80-90)
		Yakunlov			Stretching va tiklovchi mashqlar	Past (40-50)

1-bosqichda mashg'ulot hajmi va shiddati yuqori foizlarda (90% va 85%) tashkil etilgan bo'lib, sportchilarning asosiy texnik-taktik harakatlari va umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan. Bu bosqich sportchilarning funksional imkoniyatlarini maksimal yuklamalar orqali rivojlantirish bosqichi hisoblanadi.

2-bosqichda mashg'ulot hajmi saqlanib, kuch-tezkorlik sifatlari 90% ga yetkazilgan. Bu davr sportchilarning kuch va tezkorlik qobiliyatlarini mukammallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mashg'ulot davomiyligi biroz kamaytirilib, intensivlik yuqoriligi saqlanadi (5-jadvalga qarang).

2-bosqich mashg'ulot dasturi


Hafta kuni	Vaqt	Mashg'ulot qismi	Holat	Vazn toifasi	Mashqlar mazmuni (texnik kombinatsiyalar)	Shiddat zonasi
Dushanba	Ertalab (3 soat)	Tayyorlov	Tik turgan holat	Barcha vaznlar	Maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnika takrorlash	O'rta (65-75%)
		Asosiy	Tik turgan holat	60-66 kg	Seoi-otoshi + Ko-uchi-gari kombinatsiyasi	Yuqori (85-95%)
				73-81 kg	Ura-nage + Sumi-gaeshi kombinatsiyasi	Yuqori (85-95%)
				90+ kg	Soto-makikomi + Harai-goshi kombinatsiyasi	Yuqori (85-95%)
		Yakunlov	Tik turgan holat	Barcha vaznlar	Stretching, nafas mashqlari, mushaklarni bo'shashtirish	Past (40-50%)
	Kechki (3 soat)	Tayyorlov	Parter	Barcha vaznlar	Parterda kuch mashqlari, texnik harakatlar	O'rta (65-75%)
		Asosiy	Parter	Barcha vaznlar	Parterda hujum va himoya texnik mashqlari	Yuqori (85-95%)
		Yakunlov	Parter	Barcha vaznlar	Cho'zish mashqlari, bo'shashtirish	Past (40-50%)

3-bosqichda esa mashg'ulot hajmi 60% gacha kamaytirilgan, tezkorlik ko'rsatkichlari esa 95% darajasiga yetkaziladi. Ushbu bosqich musobaqa oldi tayyorgarlikning yakuniy bosqichi bo'lib, sportchilarning harakatlarni yuqori tezlikda, aniq va to'g'ri bajarishiga qaratilgan.

3 bosqichli mashg'ulot dasturi quyidagi tartibda ishlab chiqilgan bo'lib, har bir bosqich 1 oy (4 hafta) davom etadi. Quyida 1-bosqichning batafsil 1 haftalik namunaviy mashg'ulot dasturi taqdim etilgan bo'lib, qolgan haftalarda ham xuddi shu tartib va me'yorlarda davom ettiriladi.

Diagrammadagi ko'rsatkichlar sport mashg'ulotlarining nazariy tamoyillariga, xususan yuklama va tiklanish, bosqichma-bosqichlik va shiddat-hajm muvofiqligi prinsiplariga to'liq mos holda tashkil etilgan mashg'ulot jarayonining samaradorligini tasdiqlaydi. Jahon olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda

ham musobaqa oldi bosqichida yuklama hajmini kamaytirib, shiddatni oshirish sportchilarning musobaqadagi natijalarini sezilarli yaxshilashini ta’kidlagan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bosqichli mashg‘ulot dasturlarining malakali dzyudochilarga ta’siri

Shu bilan birga, diagramma asosida prognoz qilish mumkin: mazkur 3 bosqichli mashg‘ulot dasturi sportchilarning texnik-taktik, psixofiziologik va jismoniy tayyorgarlik darajasini optimal darajada saqlash, musobaqada maksimal natijaga erishish imkonini beradi.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 1-bosqichda barcha ko‘rsatkichlar nisbatan o‘rta darajada: texnik-taktik samaradorlik 75%, psixofiziologik tayyorlik 70% va maxsus jismoniy tayyorgarlik 78%. Bu bosqichda sportchilarning asosiy maqsadi texnik kombinatsiyalarni takroriy mashq qilish va organizmni yuklamalarga moslashtirish bo‘lib, shiddat zonasi yuqori darajada saqlangan.

2-bosqichda ko‘rsatkichlar sezilarli darajada oshadi. Texnik-taktik samaradorlik 85%, psixofiziologik tayyorlik 80% va maxsus jismoniy tayyorgarlik 86% ga yetadi. Bu bosqichda sportchilar real jangovar vaziyatlarda texnik-taktik qarorlarni tez va samarali qabul qilish ko‘nikmalarini

mustahkamlashga e'tibor qaratadi. Mashg'ulot vaqti qisqartirilgan bo'lsa-da, shiddat zonasi maksimal darajada (90-100%) ushlab turilgan. Shuningdek, psixologik tayyorgarlik mashqlari orqali sportchilarning musobaqaga ruhiy tayyorligi kuchaytiriladi.

3-bosqichda esa barcha ko'rsatkichlar yuqori cho'qqiga yetadi: texnik-taktik samaradorlik 95%, psixofiziologik tayyorlik 93% va maxsus jismoniy tayyorgarlik 92%. Ushbu bosqichda mashg'ulot vaqti minimal darajaga tushirilgan bo'lib, asosiy e'tibor sportchilarning tiklanishi va musobaqaga maksimal tayyorligini saqlashga qaratiladi. Har bir sportchi o'zining eng samarali texnik repertuarini qisqa vaqt ichida takrorlab, musobaqa uchun optimal funksional holatga yetkaziladi.

Umuman olganda, diagrammadagi ko'rsatkichlar sport mashg'ulotlarining nazariy tamoyillariga, xususan yuklama va tiklanish, bosqichma-bosqichlik va shiddat-hajm muvofiqligi prinsiplariga to'liq mos holda tashkil etilgan mashg'ulot jarayonining samaradorligini tasdiqlaydi. Jahon olimlari, jumladan, Sterkowicz, Franchini va Matsumoto tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham musobaqa oldi bosqichida yuklama hajmini kamaytirib, shiddatni oshirish sportchilarning musobaqadagi natijalarini sezilarli yaxshilashini ta'kidlagan.

Shu bilan birga, diagramma asosida prognoz qilish mumkin: mazkur 3 bosqichli mashg'ulot dasturi sportchilarning texnik-taktik, psixofiziologik va jismoniy tayyorgarlik darajasini optimal darajada saqlash, musobaqada maksimal natijaga erishish imkonini beradi.

Dissertasiyaning "**Innovation mashg'ulotlar asosida jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirish**" deb nomlangan to'rtinchi bobida nazorat va tajriba guruhlariga ajratilgan Respublika olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi sportchilari bilan o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalarining qiyosiy tahlili ochib berilgan: Jumladan, pedagogik tajribada malakali dzyudochilarning texnik-takrik va jismoniy tayyorgarligini takomlishtirish uchun ishlab chiqilgan dasturlarning samaradorligi tahlili o'tkazilgan. Ushbu mashg'ulotlar davomida qo'llaniladigan "Texnik usullar kombinatsiyalari" dasturi ishlab chiqilgan va ularning samaradorligi pedagogik tajriba asosida aniqlangan.

